

**TADBIRKOR VA ISHBILARMONLAR HUQUQ VA MANFAATLARI  
YANGI KONSTITUTSIYA HIMOYASIDA**

*Hoshimov O'tkirbek Hakimjon o'g'li*

*Andijon mashinasozlik instituti talabasi*

*Tel: +998889571904*

*Email: [hoshimovotkirbek133@gmail.com](mailto:hoshimovotkirbek133@gmail.com)*

*Solimuhammadov Jamshidbek Sohijon o'gli*

*Andijon mashinasozlik instituti talabasi*

*tel: +998911137125*

*Email: [solmuxammadovjamshidbek@gmail.com](mailto:solmuxammadovjamshidbek@gmail.com)*

**Annotatsiya**

*“Tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishning zamonaviy sud mexanizmlari, O‘zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyot va maqsad ham tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarining sud orqali samarali himoya qilinishini ta’minlash, milliy qonunchilikni takomillashtirishning dolzarb masalalarini muhokama qilish, xalqaro hamkorlar bilan sohada fikr va tajriba almashish, ilg‘or xalqaro amaliyotdan kelib chiqib qonunchilikni yanada takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.*

***Kalit so‘zlar:** Xalq, Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, Tadbirkorlar huquqlari, Konstitutsiya va qonunlar ustunligi, inson sha’ni, demokratik va huquqiy davlat.*

**Kirish:** Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 5-oktabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni soha rivojida yangi bosqichni boshlab berdi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi asosida iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligi kafolatlangani, xususiy mulk daxlsiz va davlat himoyasiga olingani bunga mustahkam zamin yaratdi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatimiz iqtisodiyotining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Tadbirkorlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga ko‘proq erkinlik berish, sohadagi ortiqcha byurokratik to‘siq va g‘ovlarni bartaraf etishga qaratilgan ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ularga muvofiq davlat tuzilmalarining xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvi qisqartirildi, xo‘jalik subyektlariga nisbatan qo‘llaniladigan sanksiyalar tizimi qayta ko‘rib chiqildi. Tadbirkorlik tashabbuslarini

moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli imtiyoz va preferensiyalar tizimi yaratildi. Prezidentimiz rahnamoligida qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yuksak samaralar bermoqda.

Prezidentimiz rahnamoligida qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yuksak samaralar bermoqda.

O'zbekistonda tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish yo'lida olib borilayotgan islohotlar tahsinga loyiq, – deydi AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligining yetakchi mutaxassisi Megan Gernes. – Prezident Shavkat Mirziyoyevning tadbirkorlik sohasini rivojlantirish, tadbirkorlar huquq va manfaatlarini himoya qilishga bo'lgan katta e'tibori diqqatga sazovor. Mazkur seminar o'zaro tajriba almashish, yangi taklif va tavsiyalar ishlab chiqish orqali soha taraqqiyotiga xizmat qilishi shubhasiz.

Davlat bozor munosabatlarini rivojlantirish, halol raqobat uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Yer qonunda nazarda tutilgan hamda undan oqilona foydalanishni va uni umummilliy boylik sifatida muhofaza qilishni ta'minlovchi shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi.

Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va faoliyat yo'nalishlarini mustaqil tanlashga haqli.

Davlat iste'molchining huquqlari ustuvorligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini kafolatlaydi.

Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli.

Monopol faoliyat qonun bilan cheklanadi.

Mulkdor o'z mol-mulkidan sud qarorisiz hamda qonunga zid tarzda mahrum qilinishi mumkin emas.

Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tufayli yetkazilgan zararining o'rni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega.

Davlat sog'liqni saqlash tizimining nodavlat shakllarini rivojlantirish choralari ko'radi.

Davlat nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojlanishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga kiritilgan yangi, maqsad ham tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda tadbirkorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarining sud orqali samarali himoya qilinishini ta'minlash, milliy qonunchilikni

takomillashtirishning dolzarb masalalarini muhokama qilish, xalqaro hamkorlar bilan sohada fikr va tajriba almashish, ilg'or xalqaro amaliyotdan kelib chiqib qonunchilikni yanada takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Muxtasar aytganda, bugun Konstitutsiyamizning yangi normalarida asosiy e'tibor inson, jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilganini ishonch bilan ta'kidlash mumkin. Yangi tahrirdagi Asosiy Qonunning qabul qilinishi bilan bu borada yanada mustahkam konstitutsiyaviy-huquqiy asos yaratildi. Binobarin, Yangi O'zbekiston o'zining ushbu sohalaridagi xalqaro majburiyatlariga qat'iy sodiqligini yana bir bor namoyon etdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Jamshidbek Sohibjon o'g'li & Hoshimov O'tkirbek Hakimjon o'g'li. (2023). *O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidan*
2. *Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.*
3. Rashod Adilovich Nosirov, Svetlana Vladimirovna Temirova. "Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishining tarixi"//O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi - inson qadrini ulug'lash, erkin va farovon hayotimiz kafolati. Volume 3|TSTU Conference 2|2022.
4. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.05.2023 yildagi PF-67-son*

#### **|Intrnet malumotlari.**

1. <https://uza.uz/posts/81387> [https://constitution.uz/oz/pages/broshura\\_tadbirkor](https://constitution.uz/oz/pages/broshura_tadbirkor)
2. <https://www.uzairways.com/uz/press-center/news/8-dekabr-ozbekiston-konstitutsiyasi-qabul-qilingan-kun-0>
3. <https://aidlix.com/index.php/de/article/view/89>.
4. [https://transportgeography.org/?page\\_id=5325](https://transportgeography.org/?page_id=5325)